

PEDAGOGIK AMALIYOT VOSITASIDA TALABALARNI OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK QILISHGA TAYYORLASHNING IJTIMOIIY – PEDAGOGIK ZARURIYATI

*Abduraxmonova Sayyoraxon Shaxobidinovna
Andijon davlat Pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashning ijtimoiy – pedagogik zaruriyati haqida fikr yuritilgan. talabalarning oila bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorligini shakllantirish uchun bir qator pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash hamda mavjud muammolar o'rganilgan. Soha mutaxassislarining fikrlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: pedagogik amaliyot, tarbiya, oilaviy ta'lim, renessans, kasbiy faoliyat, hamkorlik, ijtimoiy-pedagogik model.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ПОДГОТОВКИ ОБУЧАЮЩИХСЯ К СОТРУДНИЧЕСТВУ С РОДИТЕЛЯМИ ЧЕРЕЗ ПЕДАГОГИЧЕСКУЮ ПРАКТИКУ

Абдурахманова Сайёрахан Шахобидиновна

Независимый научный сотрудник Андийжанского государственного педагогического института

Абстрактный. В данной статье рассматривается социально-педагогическая необходимость подготовки учащихся к сотрудничеству с родителями посредством педагогической практики. изучен ряд педагогических условий и существующих проблем формирования готовности студентов к социально-педагогической деятельности с семьей. Проанализированы мнения экспертов отрасли.

Ключевые слова: педагогическая практика, воспитание, семейное образование, возрождение, профессиональная деятельность, сотрудничество, социально-педагогическая модель.

SOCIAL-PEDAGOGICAL NEED TO PREPARE STUDENTS TO COOPERATE WITH PARENTS THROUGH PEDAGOGICAL PRACTICE

Abdurakhmanova Sayyorakhan Shakhobidinovna

Independent researcher of Andijan State Pedagogical Institute

Abstract: This article discusses the socio-pedagogical necessity of preparing students to cooperate with parents through pedagogical practice. a number of pedagogical conditions and existing problems were studied to form students' readiness for socio-pedagogical activities with the family. Opinions of industry experts are analyzed.

Key words: pedagogical practice, upbringing, family education, renaissance, professional activity, cooperation, socio-pedagogical model.

Kirish. Ma'lumki, ota-onalarning tarbiyaviy o'rnini kuchaytirishda ularga doimiy yordam talab qilinadi. Ota-onalar bilan ishlashning zaruriyati qator omillarga asoslanadi. Oilaviy tarbiya bilan jamiyatning ijtimoiy muammolari o'rtasidagi bog'liqlikning mavjudligi, yosh ota-onalar bola tarbiyasi bo'yicha ularga zaruriy yordam ko'rsatilishiga ehtiyoj sezilganidek, bolalar ham o'z o'rnida pedagogik bilimli ota-onaga ehtiyoj sezadilar. Afsuski, oilaviy ta'limning o'zi har doim ham izchil va tizimli emas. Bunday vaziyatda ota-onalarga bolalarni tarbiyalash, ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini, umuman, oilaviy ta'lim sharoitlarini va ma'lum bir sharoitda ularning holatini hisobga olgan holda, ularni tarbiyalash masalalarini hal qilishda samarali yordam bera oladigan mutaxassislar kerak va bu mutaxassislarni pedagogik amaliyot vositasida tayyorlash maqsadga muvofiq.

Biroq, bugungi kunda talabalarning ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarning individual, guruh va jamoaviy shakllarining nomutanosibliigi, talabalarning ota-onalar bilan o'zaro munosabatlariga rasmiy munosabati, oilaning tarbiyaviy salohiyatini yetarlicha baholamaslik kabi muammolar mavjud.

Prezientimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz.

Men ishonaman – hurmatli ota-onalar bu tashabbusni albatta qo'llab-quvvatlab, yangi Renessansning beshinchi halqasi, beshinchi ustuni bo'ladilar. Va bu ma'naviy-ma'rifiy hayotimizdagi eng mustahkam ustun bo'ladi, desam, o'ylaymanki, sizlar to'la qo'llab-quvvatlaysizlar"[1].

Darhaqiqat, prezidentimiz bejiz Renessansning to'rt uzviy halqasi va beshinchi halqa sifatida ota-onalarni ta'kidlamadilar.

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili. Ilm-fanning hozirgi yo'nalishi - bu pedagogik e'tiborsiz bolalar sonining

ko'payishiga, ko'pchilikning pedagogik qobiliyatsizligiga olib keladigan ijtimoiy vaziyatdagi doimiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda pedagogik amaliyot davomida talabalar faoliyatining ota-onalar bilan hamkorlik qilishining ijtimoiy-pedagogik modelini ishlab chiqishdir. Biroq, ushbu yo'nalishdagi mavjud tadqiqotlarga qaramay, pedagogika-psixologiya fanida talabalar va ota-onalarning pedagogik hamkorlik muammosi yetarli darajada rivojlanmagan. Bu nafaqat individual texnologiyalarni ishlab chiqish, balki talabalarning oila bilan pedagogik faoliyatga tayyorligini shakllantirish uchun bir qator pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash kerak.

Fikrimizcha, talabalarni kasbiy faoliyatda ota-onalar bilan pedagogik hamkorlikka tayyorlash institutdagi o'quv-tarbiya jarayon qanchalik samarali tashkil etilishiga bog'liq. Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash muammosini tahlil etish bu sohada quyidagi muammoli holatlar mavjudligini ko'rsatadi:

1. Ta'lim muassasalarning hamkorlikka asoslagan moddiy-texnik va o'quv-uslubiy ta'minotning hozirgi zamon talablari darajasida emasligi,

2. Pedagogik amaliyotning ota-onalar bilan hamkorlik qilishgan doir ko'rsatmalar to'laqonli yaratilmaganligi va bu amaliyotlar o'tkaziladigan

3. Muassasalar hamda tashkilotlardan hamkorlik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish mexanizmlari takomillashtirilishi muhimligi, aniq yo'llar, shakllar va vositalarni, shuningdek, talabalar va tarbiyachilarni birgalikdagi ota-onalar bilan hamkorlik qilishga jalb qilishni o'z ichiga olgan kompleks dasturni ishlab chiqilmaganligi,

4. pedagogika institutlarida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash asosida ilmiy asoslangan holda o'quv dasturi ishlab chiqilmaganligi,

5. talabalarning pedagogik amaliyoti jarayonida hamkorlikni rivojlantirish modelini ishlab chiqilmaganligi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot muammosi bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish, professor-o'qituvchilarning pedagogik ish tajribasi, amaliyot rahbarlari va talabalari o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish kelajakda talabalarlarni maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarning ota-onalari bilan pedagogik-hamkorlik qilishning o'zaro munosabatlarga tayyorlashni murakkablashtiradigan asosiy qarama-qarshiliklar oldi olinadi. Bular:

- Talabalarni ota-onalar bilan o'zaro munosabatlar shakllari va vositalarini kengaytirishni ta'minlaydigan ta'lim muassasalari faoliyati va pedagogika universitetlari bitiruvchilarining «talaba - tarbiyachi - bolalarning ota-onasi» yagona ta'lim makonini qurish bilan bog'liq aniq ta'lim vazifalarini hal qilish uchun zamonaviy texnologiyalar va texnikalardan bohabar bo'lishi.;

- Talabalarga pedagogik amaliyot orqali maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarning ota-onalari bilan o'zaro munosabatlarni tashkil etish, xavfsizlik madaniyatini shakllantirish, bolalarning ijtimoiy kompetensiyasi va ular bilan o'zaro munosabatlarning haqiqiy vaziyatlarida pedagogik harakatlarni tashkil qilish;

- Talabalarni ota-onalar bilan o'zaro aloqada bo'lishga tayyorlashda institut o'quv jarayonining salohiyati va mutaxassislik fanlari o'qituvchilari, pedagogik amaliyot rahbarlari, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari o'rtasida ota-onalar jamoasi bilan ishlashga va ularning tegishli vakolatlarini o'zlashtirishga faol jalb qilish.

Ushbu kuzatilishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklarning mavjudligi pedagogik amaliyoti talablari o'rtasida ota-onalar bilan pedagogik hamkorlik uchun bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash darajasiga va institut bitiruvchisi o'rtasidagi ushbu talablarga nomuvofiqlikka olib keldi.

M. Barakayevning fikriga ko'ra: - talaba pedagogik amaliyotni o'tashga borgan davrda hal qilinishi zarur bo'gan juda ko'p muammolarga duch kelishadiki, bu muammolarni to'laqon hal qilmasdan turib ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi [2].

Ko'pincha talabalar, qoida tariqasida, maktabgacha ta'lim tashkiloti hayotida ishtirok etishga nazariy jihatdan tayyor bo'lmagan ota-onalarning kam faolligi yoki davomati kam bo'lgan holda turli xil tadbirlarni o'tkazadilar va bu boradagi masalalarni muhokama qiladilar. Bularning barchasi ta'limning vazifalari va usullarini aniqlab bo'lmaydi. Bu kamchiliklarning sabablari har - xil bo'lib, ularning eng muhimi talabalarning ota-onalar bilan ishlashga tayyor emasligi, ular bilan muloqotning tegishli shakllarini topa olmasliklari bilan bog'liq. Talabalarni amaliyot davrida ular uchun juda zarur bo'lgan ko'nikma va qobiliyatlarning yetishmasligi ham kuzatiladi.

Ushbu muammoning hal qilish zaruriyati shuki, ota-onalar bilan ishlashda nazariy va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan talabalarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etishini taqozo etadi.

O.V. Kornilova shu o'rinda ta'kidlaydiki: „Ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ta'lim muassasasida bolalarga mohirona tashkil etilgan pedagogik yordam va ota-onalar bilan hamkorlikka bog'liq. Agar, talabalar amaliyot davrida bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatish, yordam berish, insonparvarlikning namoyon qilish bilan shaxsiy o'zini-o'zi takomillashtirishga erishadilar deb hisoblaydi“ [3].

Psixoloq G'oziyevning olib borgan tadqiqotlarida talabalar psixologik hususiyatlari, o'quv faoliyatining o'ziga xosligi hosliklari ya'ni: „Talabalik davri o'spirinlikning ikkinchi bosqichidan iborat bo'lib, 17—22 (25) yoshni o'z ichiga oladi va o'zining qator betakror xususiyatlari va qarama-qarshiliklari bilan xarakterlanadi. Mazkur pallada o'spirin o'ziga xos ruhiy inqiroz yoki tanglikni boshidan kechiradi, quyi kurslardagi talabalar esa, o'quv faoliyatini mumkin qadar to'laroq tasavvur

etishga harakat qiladilar, lekin uni boshqarish to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lmaydilar“ [4] deb ta'kidlaydi.

Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarning ba'zilarida amaliyotga nisbatan loqaydlik, davomatning pastligi, dars jarayonlariga yaxshi tayyorgarlik ko'rmaslik, bolalarda MTTga nisbatan qiziqish uyg'ota olmaslik kabi loqayd munosabat shakllangan bo'ladi. Bunday salbiy holatlarga pedagogik amaliyot nazoratining sustligi, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari ustida muntazam ishlamasligi, kelajakda ota-onalarning qistovi bilan kasb tanlash, ta'lim muassasalarida korrupsiya holatlarining mavjudligi kabi holatlar sabab bo'lishi mumkin.

Talabalarning pedagogik amaliyoti jarayonida ota-onalar bilan ishlashda nazariy tayyorgarligi sustligi salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi va ularning ruhiy holatiga aks ta'sir ko'rsatadi. Salbiy ruhiy holatlar ta'lim jarayonida pedagogik amaliyot samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

BMТning bolalar jamg'armasi YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi texnik ko'magi yordamida yaratilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining “Ilk qadam” davlat o'quv dasturida bir qator MTT ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan o'zaro munosabatlarning turli shakllarini amalga oshirishda tavsiyalar berilgan.

□ bolalar rivojlanishining dolzarb masalalari bo'yicha ota-onalarning malakalarini rivojlantirish va takomillashtirish (seminar, ota-onalar klubi, trening, maslahat, konferentsiya, davra suhbat, pedagogik mehmonxonalar va boshqalar);

□ muntazam ravishda muloqot (kommunikatsiya)ni ta'minlash (ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlagan holda pedagoglarning ota-onalar bilan online va offline uchrashuv va yig'ilishlarni o'tkazishi, elektron xabarlar almashishi, bolaning rivojlanishi haqida ma'lumot berishi va boshqalar);

□ ota-onalarni guruh va/yoki maktabgacha ta'lim tashkilotiga ko'ngillilik faoliyatiga jalb etish (rivojlantiruvchi muhitni yaratishda ishtirok etish; xavfsiz muhitni ta'minlash; o'yinlar tashkil etish; qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatish; ko'rgazmalarni bezash, mashg'ulot, bayram va tadbirlarni tashkil etish va ularda birgalikda qatnashish);

□ ota-onalarga uyda bolaning o'qishni davom ettirishida (tashkil etishda) ko'maklashish (topshiriqlar haqida ma'lumot berish, resurslar bilan ta'minlash, bolaning rivojlanishi va ta'lim olishini kuzatish, o'quv dasturi doirasida bolalar loyihalarida ishtirok etish va boshqalar);

□ maktabgacha ta'lim tashkilotiga oid qarorlar qabul qilishda ishtirok etish (kuzatuv kengashi va ota-onalar qo'mitasi bilan ishlash, ularning faoliyati to'g'risida ota-onalarni xabardor qilish, umumiy va guruhlarining ota-onalar yig'ilishlarida qatnashish, maktabgacha ta'lim tashkilotining yangi dasturlarini yaratish va ularni amalga oshirishda ishtirok etish, bolaning qiziqishlariga qarab maktabgacha ta'lim tashkilotida qo'shimcha xizmatlarni tanlash);

□ bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish (maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishda mahalliy hamjamiyat resurslaridan foydalanish, hududdagi muzeylar, istirohat bog'lari, hunarmandlar ustaxonalari va boshqa diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurish, mahalliy hokimlik yetakchilari bilan uchrashuvlar tashkil etish, ularni guruhlarga va ota-onalar ishtirokidagi tadbirlarga taklif qilish, ochiq eshiklar kuni va bayramlar tashkil etish).[5]

Xulosa va takliflar. Shuni ta'kidlash lozimki, pedagogik amaliyot davrida talabalarning ishi ijodiy xarakterga bo'lishi lozim. Talabalar ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashda kasbiy majburiyatlarini ijodiy bajarsa, o'zaro hamkorlikning samarali shakl va usullarini qidirsas, ota-onalarga munosabati, pedagogik faoliyatga qiziqishi kasbiy mahorati oshib boradi. Shu nuqtayi-nazardan olib qaraganda malakaviy amaliyot ilg'or ish tajribalarini o'rganish maskani mahorat maktabi hisoblanadi.

Talabalar nafaqat o'z fanini, pedagogika va psixologiya asoslarini bilishi, balki, birinchi navbatda, kasbiy-pedagogik faoliyatning shakllangan malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim, maktabgacha ta'lim tashkilotida uchun oddiy pedagogik tajriba o'rnatish va amalga oshirish, o'z shaxsiy ta'lim-tarbiya jarayonini shakllantiruvchi pedagogik va psixologik xususiyatlarni anglashi kerak.

So'nggi paytlarda yuzaga kelgan ijtimoiy sharoitlar oliy ta'lim maktabgacha ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari oldiga yangi talablar qo'yimoqda: o'z mahorat va qobiliyatlari, insonparvarlik asoslariga asoslangan shaxsiy fazilatlar bilan insoniyat jamiyati taraqqiyotiga, jumladan, madaniyat yuksalishi va ilm-fan rivojiga ko'maklashishi kabi.

Shu bois talabalarning oliy o'quv yurtida o'qishga ongli mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishlari, ularning bilim mustaqilligiga qodir bo'lgan mutaxassis va intellektual shaxs sifatida kamol topishining asosiy yo'li sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham oliy ta'lim muassasida o'qish jarayonida mustaqillik darajasi yuqori bo'lgan shaxsni tarbiyalash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи <http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv30-09-2020>.

2. М.Баракәев “Малакавий амалиёт” услубий қо’лланма / М.Баракәев [va boshq.]. —Тoshkent: □Turon-Iqbol□, 2015. -152 б.

3. О.В. Корнилова “Основные направления работы с родителями в условиях класса интегрированного обучения и воспитания, партнерство школы и семьи” Научные стремления 4 (16) 2015. – 27 с.

4. Е. G’oziyev. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi) Pedagogika institutlari va universitetlarning talabalari uchun O’quv qo’llanma.”O’qituvchi” Toshkent.1994.178-184.

5. “Ilk qadam”davlat o’quv dasturi (Takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent-2022.